



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va indeksi.

108,8 mlrd.
so'm
90,2 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

11618,7 mlrd.
so'm
96,1 %

Ishlab chiqaradigan sanoat

433,8 mlrd. so'm
130,9 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

71,1 mlrd. so'm
97,1 %

Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning sanoat korxonalari tomonidan 12231,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 94,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tar-kibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,0 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarishda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning fizik hajmi indeksi 30,9 % ga oshishi kuzatildi.

Aksincha, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 2,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 3,9 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 9,8 % ga pasayish kuzatilgan.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jamiga nisbatan ulushi, %




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

Jamiga nisbatan ulushi, %

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11618,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,0 foizini tashkil etdi.





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 100,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 2122,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 1615,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 13,2 %), quyi texnologiyali tarmoq 7779,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 63,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi
(mlrd. so'm)



Ishlab chiqarishdagi ulushi
(foizda)



yuqori texnologiyali
 o'rta-yuqori texnologiyali

o'rta-quyi texnologiyali
 quyi texnologiyali



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-sentabr oylari davomida, ishlab chiqaradigan sanoatda 307,4 ming tonna chaqiq tosh (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 59,2 % ga o'sgan), 124,8 ming tonna po'latdan quvurlar (2,4 martaga), 272,3 ming tonna asfalt (32,6 %ga), 14658,1 tonna yigirilgan ip (2,5 martaga oshgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	193,1	307,4	114,3
Po'latdan quvurlar ming t.	51,3	124,8	73,5
Tamaki (sigaret), mln.dona	7308,0	7017,0	-291
Asfalt, ming t.	205,4	272,3	66,9
Yigirilgan ip, t	5904,2	14658,1	8753,9

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Xo'jalik sovuni, t	4980,0	3420,0	-1560,0
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	50,6	14,6	-36,0
Paxta tolasi, ming t.	14,6	24,1	9,5
O'simlik yog'i, t	7787,0	6142,1	-1644,9



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish**
(yirik korxonalar bo'yicha)



Tarkibida azot va
fosfor bo'lgan
mineral yoki
kimyoviy o'g'itlar

3,90
ming tonna

215,2
ming l. 100% spirit

Xo'jalik sovuni

3420,0
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

1318,6
ming l.

Pivo (pivo ishlab
chiqarish
chiqindilardan
tashqari)

26325,0
ming l.

Yumshoq bug'doy va
spelta uni

132,8
ming tonna.

Birinchi navli undan
tayyorlangan bug'doy
noni (buxanka), og'irligi
600 g.

532,2
tonna

Tozalangan paxta yog'i
va uning fraksiyalari
(kimyoviy modifikatsiya
qilinganlaridan tashqari)

8732,7
tonna



Paxta tolasi

24,1
ming tonna



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish**
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigiti



Paxta tiviti (lint)



Yigirligan ip

39,9
ming tonna

1505,5
tonna

14658,1
tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

66,55
mln kBts.



Bug' va issiqlik suv
(issiqlik energiyasi)

55,4
ming Gkal.



Portlandsement

80202,2
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Po'latdan quvurlar



Asfalt



Chaqiq tosh

124,8
ming tonna

272,3
ming tonna

307,4
ming tonna



Tamaki (sigaret)



Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa



Mineral va kimyoviy
o'g'itlar chiqarish

7017,0
mln. dona


87,5
ming tonna

14,6
ming tonna



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jamiga nisbatan ulushi, %




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 433,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 foizini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash tarmoqlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 30,9 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 % ga pasayganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7894,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga oshganligi hamda jami sanoatdagi ulushi 64,5 % ni tashkil etganligi kuzatildi.



2019- yilning mos davriga solishtirilganda, 2020- yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,7 % dan 61,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 4,6 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 4,4 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 42,8 % ni, shuningdek, Urgut tumani 13,1 % ni, Samarqand tumani 9,1 % ni, Jomboy tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (108,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Oqdaryo (204,9 %), Payariq (184,0 %), Pastdarg'om (165,9 %), Ishtixon (149,0 %), Jomboy (143,9 %) hamda Nurobod (123,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, ulushi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	7894,2	100	108,2
Samarqand sh.	3379,9	42,8	102,8
Kattaqo'rg'on sh.	116,3	1,5	78,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	185,0	2,3	204,9
Bulung'ur	178,8	2,3	80,2
Jomboy	601,5	7,6	143,9
Ishtixon	171,0	2,2	149,0
Kattaqo'rg'on	140,2	1,8	93,2
Qo'shrabot	18,3	0,2	111,8
Narpay	199,0	2,5	111,8
Payariq	137,9	1,7	184,0
Pastdarg'om	342,5	4,3	165,9
Paxtachi	74,7	0,9	109,9
Samarqand	717,1	9,1	91,4
Nurobod	143,4	1,8	123,0
Urgut	1032,9	13,1	103,5
Toyloq	455,5	5,8	108,3



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4751,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020- yil yanvar-sentabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Samarqand viloyati	12231,8	94,7
Samarqand sh.	5618,7	98,2
Kattaqoʻrgʻon sh.	187,0	92,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	212,8	111,2
Bulungʻur	277,6	101,8
Jomboy	1457,1	79,0
Ishtixon	227,8	134,0
Kattaqoʻrgʻon	222,8	103,2
Qoʼshrabot	28,7	96,7
Narpay	406,6	120,8
Payariq	220,8	108,1

	2020- yil yanvar-sentabr mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Pastdarg'om	425,7	105,7
Paxtachi	192,9	109,6
Samarqand	1064,2	96,5
Nurobod	146,8	108,9
Urgut	1074,3	96,6
Toyloq	468,1	105,8



Sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning (45,9 %), Jomboy (11,9 %), Urgut (8,8 %), Samarqand (8,7 %), Toyloq (3,8 %), Pastdarg'om (3,5 %) Narpay (3,3 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,2 %), Nurobod (1,2 %) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (1,5%) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. soʻm)	Jamiga nisbatan ulushi % da
Samarqand viloyati	5093,9	41,6
Samarqand sh.	1564,6	27,8
Kattaqoʻrgʻon sh.	67,1	35,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	105,8	49,7
Bulungʻur	136,6	49,2
Jomboy	318,1	21,8
Ishtixon	63,4	27,8
Kattaqoʻrgʻon	205,2	92,1
Qoʼshrabot	22,1	76,8
Narpay	24,9	6,1
Payariq	220,2	99,7
Pastdargʼom	239,9	56,4
Paxtachi	182,5	94,6
Samarqand	790,0	74,2
Nurobod	131,5	89,6
Urgut	878,2	81,7
Toyloq	143,9	30,7



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlari ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5255,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, umumiy ishlab chiqarish hajmi-dagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qoʻshrabot, Oqdaryo, hamda Nurobod, (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) ni, Paxtachida (89,9 %), Urgut (81,8%), Samarqand (71,2 %), Pastdargʻom (65,1 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Kattaqoʻrgʻon shahri (34,9 %), Samarqand shahri (27,4 %), Ishtixon (28,2 %), Narpay (7,3 %) tumanlarida kichik biznes subyektlari ulushining kamligi kuzatilgan, ushbu holatni mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 6739 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1546 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 23,0 %) Samarqand shahriga, 969 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 625 tasi (9,2 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha 1238 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 184 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalaridagi ulushi 14,9 %) Samarqand shahrida, 167 tasi (13,5 %) Urgut tumanida, 125 tasi (10,1 %) Samarqand tumanida, 118 tasi (9,5 %) Pastdarg'om tumanida tashkil etilgan.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 57 ta loyiha bo'yicha 403,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 8,6 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-sentabr oylarida 54 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 90,2 foizga pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining ko'payganligi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	40	57
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	20	24
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mldr. so'm</i>	417,3	403,8
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	6,5	8,6
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, <i>birlik</i>	552	54

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel: (66) 235-06-80